

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.10.2021.T.101.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

MUSOYEVA LOBAR SAYFULLAYEVNA

**KO‘PKORI MILLIY OT SPORTI O‘YINI UCHUN MAXSUS KIYIM
RATSIONAL KONSTRUKSIYASI VA SAMARALI TEXNOLOGIYASINI
ISHLAB CHIQISH**

05.06.04– Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro-2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Musoyeva Lobar Sayfullayevna

Ко‘pkori milliy ot sporti o‘yini uchun maxsus kiyim ratsional konstruksiyasi
va samarali texnologiyasini ishlab chiqish..... 3

Musoyeva Lobar Sayfullayevna

Разработка рациональной конструкции и эффективной технологии
специальной одежды для национальных конно-спортивных игр
купкари..... 21

Musoyeva Lobar Sayfullayevna

Development of rational design and effective technology of special clothing
for the national equestrian games kupkari..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 43

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.10.2021.T.101.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

MUSOYEVA LOBAR SAYFULLAYEVNA

**KO‘PKORI MILLIY OT SPORTI O‘YINI UCHUN MAXSUS KIYIM
RATSIONAL KONSTRUKSIYASI VA SAMARALI TEXNOLOGIYASINI
ISHLAB CHIQISH**

05.06.04– Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro-2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/T4486 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Buxoro davlat texnika universiteti huzuridagi Ilmiy Kengashning veb-sahifasida (www.bstu.uz) va "ZiyoNet" axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Pulatova Saboxat Usmanovna
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponet:

Muminova Umida Toxtasinovna
texnika fanlari doktori, professor

Sharipova Saodat Islomovna
texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/29.10.2021.T.101.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 8 noyabr soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 200117, Buxoro shahri, Qayum Murtazoyev ko'chasi 15-uy, Buxoro davlat texnika universiteti, 3-o'quv laboratoriya binosi, 1-qavat, kichik majlislar zali); Tel.: (+998-65) 223-78-84; faks: (+998 65) 223-78-84; e-mail: bstu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 392 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200117, Buxoro sh., Qayum Murtazoyev ko'chasi 15-uy, Tel.: (99865) 223-78-84).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 22 oktabr kuni tarqatildi.

(2025 yil 22 oktabrdagi 039 raqamli reyestr bayonnomasi)

X.Q. Raxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

R.X. Nurboyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kengash kotibi, texnika fanlari nomzodi,
professor

M.X. Teshayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, fizika-matematika fanlari
doktori

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusi dolzarbligi va zarurati. Jahonda tikuvchilik buyumlarini ishlab chiqarish uchun energiya-resurs tejankor texnologiya va texnika vositalarini qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida ot sporti uchun sifatli maxsus kiyimlarini ishlab chiqarishga talab yuqori bo'lib, ularning sifatini va raqobatbardoshligini oshirish, assortimentini kengaytirish, ergonomik loyihalash tamoyillariga asoslangan metodologiyasini va ishlab chiqarishning samarali texnologiyasini amaliyotga joriy etishni taqazo etadi. Shu jihatdan, gigiyenik, ergonomik, ekspluatatsion va estetik talablarga javob beradigan sport kiyimlarni yaratish, ularning ishonchligini ta'minlagan holda, optimal texnologik parametrlarini ishlab chiqish, sport kiyim turlarini ko'paytirish, resurstejankor texnologiyalardan foydalanish va sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Dunyoda tikuv buyumlarini ishlab chiqarishda texnologik jarayonlarga ta'sir etadigan muhim omillarni aniqlagan holda, ilmiy asoslangan texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, ko'pkori milliy ot sporti maxsus kiyimi sifatini ta'minlash uchun yuqori gigiyenik, ergonomik va ekspluatatsion xususiyatlarga ega import o'rni bosuvchi mahalliy materiallardan foydalanish, ekspluatatsiyalash jarayonida ularga ta'sir etuvchi xavfli va zararli omillarni aniqlash, ilmiy asoslangan samarali texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish va mahsulot tannarxini pasaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda mavjud mahalliy xom ashyolardan foydalanib keng assortimentdagi sifatli tikuv buyumlarini ishlab chiqarishni tashkil etish, rivojlantirish, korxonalarda mavjud jihozlardan foydalanish, shuningdek mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"¹ ga muvofiq, jismoniy tarbiya va sport tizimining asosiy maqsadlari va rivojlanish yo'nalishlarining 5-bandida: milliy qadriyatlarimizni tiklash, yosh avlodga yetkazish maqsadida "Milliy sport turlari va xalq o'yinlari", "Uloq", "Ko'pkori" kabi etnofestivallarni tashkil etish va o'tkazish choralari ko'rish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, mamlakatimizda ko'pkori milliy ot sporti o'yini chavandozlari uchun mo'ljallangan sport uslubidagi maxsus kiyimning ratsional konstruksiyasi va samarali texnologiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"² gi, 2021 yil 5 avgustdagi PQ-5211-

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 sonli «2022-2026 yillarda mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924 sonli «O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni

sonli “O‘zbekistonda yilqichilik, ot sporti, zamonaviy beshkurak va poloni 2025 yilgacha rivojlantirish davlat dasturi to‘g‘risida”³gi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”⁴gi farmoni, O‘zbekistonda yilqichilik, ot sporti, zamonaviy beshkurash va poloni 2025 yilgacha rivojlantirish Davlat dasturini amalga oshirish bo‘yicha chora tadbirlarning 8-bandi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘oriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Turli iqlim sharoitlari uchun mo‘ljallangan maxsus kiyimlarni ishlab chiqish va tadqiq qilish bilan xorijda Jiaqing Zhang, Jiang Q.J., Dai H. (Xitoy), Huck, Maganga, Kim, Lee (Koreya) shug‘ullanishgan. Maxsus kiyimni hamda sport kiyimlarini ergonomik loyihalash tamoyillarini rivojlantirish bo‘yicha Dragcevic Z., Rogale S.F (Xorvatiya), Honglun, Sougian, Liu Chi, Kennon, Cui, Chang (Koreya), Leite da Silva, Saltos (Brazilya) ilmiy izlanishlar olib borishgan. Ot sporti va ko‘pkori milliy ot sporti o‘yini uchun mo‘ljallangan ot sporti kiyimlarini ishlab chiqish bo‘yicha Dashper, K. & St John, M. (Italiya), Kılıç, N., Ceylan Ö., Aydın Ö. H. (Turkiya) shug‘ullanishgan.

Rossiyalik olimlar ergonomik loyihalash tamoyillari asosida maxsus kiyimlarni va sport kiyimlarini ishlab chiqish bo‘yicha Романов В.Е., Коблякова Е.Б., Сурженко Е.А., Москаленко Н.Г., Розанова Е.А., Моськина Е.Л., Старкова Г.П., Чубарова З.С., Лебедова Е.О., Жигалова Т.М., Куренова И.В (Rossiya), Тюрин И.Н., Гетманцева В.В., Коберник Ю.О., Гарипова Г.И., Халилова А.А., Коваленко Ю.А., Белгородский В.С. (Rossiya), Нурымбетова К.А., Талгатбекова А.Ж. (Qozog‘iston), hamda ot sporti kiyimlarini loyihalashga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar Бутко Т.В., Артамонова С.С., Никулина Д.В., Андриевский М.Ю. (Rossiya), Хисамиева Л.Г., Усманова Э.Д., Alimbetova М.М, Amanjolova К.Е, Usenbekov J.U., Асанова С.Ж., Фазылбаева Н.Р., Айтуленова К.Т. (Qozog‘iston) va boshqalar tomonidan o‘tkazilgan.

Respublikamizda to‘qimachilik va yengil sanoat sohasining rivojiga bir qator olimlar, jumladan, X.A.Alimova, X.X.Komilova, F.U.Nigmatova, N.N.Nabijonova, A.B.Kasimova, Е.Г. ШИН, S.SH.Toshpulatov, S.U.Pulatova va boshqalar o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida maxsus kiyimlarni ishlab chiqarish sohasidagi erishilgan yutuqlarga qaramasdan O‘rta Osiyo davlatlarida ko‘pkori milliy ot sporti o‘yini chavandozlari maxsus kiyimini ishlab chiqish borasida ilmiy asoslangan ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada o‘rganilmagan.

³O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 avgustdagi PQ-5211 sonli «O‘zbekistonda yilqichilik, ot sporti, zamonaviy beshkurak va poloni 2025 yilgacha rivojlantirish davlat dasturi to‘g‘risida»gi qarori

⁴O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158 sonli «O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida »gi Farmoni

Shuni ta'kidlash lozim-ki, ot sporti chavandozlari uchun maxsus kiyimlarni loyihalash sohasidagi ilmiy ishlanmalarni o'rganish natijasida, O'zbekiston respublikasi iqlim sharoitlarida chavandozning ekstremal harakatlardagi tana haroratini o'zgarishini hisobga olgan holda ko'pkori milliy ot sporti chavandozlari uchun sport uslubidagi maxsus kiyimni loyihalashning ilmiy asoslangan konstruksiyasi va texnologiyasi mavjud emasligi aniqlandi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat texnika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida, №51-25. "Ko'pkori milliy ot sporti o'yini uchun maxsus kiyim ratsional konstruksiyasi va samarali texnologiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi xo'jalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Ko'pkori milliy ot sporti o'yini chavandozlari uchun yuqori gigiyenik, ergonomik va ekspluatatsion ko'rsatkichlarga ega sport uslubidagi maxsus kiyim ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: Dissertatsiyada qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

ko'pkori milliy ot sporti chavandozlarining mavjud kiyimlarini eskirish va yemirilishi topografiyasining tahlili asosida hamda is'temolchilar imtiyozlarini inobatga olgan holda sport uslubidagi maxsus kiyimga qo'yiladigan talablarni shakllantirish;

ot sporti chavandozlari uchun sport uslubidagi maxsus kiyim to'plamini yaratish hamda ergonomik loyihalash tamoyillari asosida sport uslubidagi maxsus kiyimning ratsional konstruksiyasini ishlab chiqish;

ko'pkori ot sporti chavandozlari uchun sport uslubidagi maxsus kiyim detallari va tugunlariga samarali ishlov berish texnologiyasini yaratish;

loyihalangan sport uslubidagi maxsus kiyimlarni real ekspluatatsiyalash sharoitlarida tajriba sinovlarini o'tkazish, ekspluatatsion sifat ko'rsatkichlarini baholash, ishlab chiqarish sharoitlarida aprotatsiyadan o'tkazish va iqtisodiy samaradorligini hisoblash.

Tadqiqotning obyeksi sifatida ko'pkori milliy ot sporti o'yini chavandozlari kiyimi olingan.

Tadqiqotning predmeti: "Inson-kiyim-tashqi-muhit" tizimida ko'pkori milliy ot sporti masus kiyimini loyihalash jarayoni olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida sport uslubidagi maxsus kiyim ishlab chiqarish texnologiyasiga tizimli yondoshuvning metodologiyasi, ilmiy tajribani matematik modellashtirish usullari, strukturaviy tahlil, eksperimental natijalarni rejalashtirish va qayta ishlash, matematik statistika usullari, to'qimachilik materiallari fizik-mexanik xossalarni tadqiq qilishning standart usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor ko'pkori milliy ot sporti chavandozlari uchun sport uslubidagi maxsus

kiyim materiali va konstruksiyasiga mos ravishda, chavandozlar tana harakati erkinligini ta'minlovchi old va orqa bo'lak funksional-konstruktiv bo'linmalari, jumladan, shim o'tirish chizig'i hamda yoqa va yeng o'miz kengligiga qo'yiladigan talablar ishlab chiqilgan;

birinchi marotaba chavandozlar tana harakatlarining erkinligini ta'minlaydigan, yuqori gigiyenik va ekspluatatsion xususiyatlarga ega bo'lgan ko'pkori milliy ot sporti chavandozlari sport uslubidagi maxsus kiyimning ratsional konstruksiyasi ergonomik loyihalash tamoyillari asosida ishlab chiqilgan;

ko'pkori milliy ot sporti kiyimini orqa yelka kengligi, ko'krak aylanasiga beriladigan qo'shimcha haqlar qiymati, reglan bichimli yengning qiyalik burchagi kabi konstruktiv parametrlarning tashqi dinamik mosligiga bog'liqligining regressiya tenglamalari va matematik modellari ishlab chiqilgan hamda ular asosida yelka yuqori nuqtasidan bilak aylanasigacha bo'lgan masofa – 85 sm, reglan bichimli yengning ostki choki va kiyimning yon choki o'rtasidagi burchak – 100°, ko'krak aylanasiga beriladigan qo'shimcha haq–13 sm ga tengligi aniqlangan;

ilk marotaba ko'pkori milliy ot sporti chavandozlari uchun sport uslubidagi maxsus kiyimning havo o'tkazuvchanligi, gigroskopikligi, issiqlikni saqlashi va choklar mustahkamligining paket qalinligiga bog'liqligini ifodalovchi matematik modeli yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

maxsus kiyim materiallarining fizik-mexanik xossalari tahlili asosida ko'pkori ot sporti chavandozlari uchun sport uslubidagi maxsus kiyimi uchun eng maqbul materiallar variantlari tanlangan;

o'yin jarayonida chavandozlari tana harakatlari erkinligini ta'minlaydigan va tabiiy-iqlim sharoitlariga mos ko'pkori ot sporti chavandozlari sport uslubidagi maxsus kiyimining ratsional konstruksiyasi hamda sport uslubidagi maxsus kiyimning ishonchliligini va ekspluatatsiyalash muddatini oshirishga yordam beradigan samarali texnologiyasi ishlab chiqilgan;

ko'pkori ot sporti chavandozlarining mehnat sharoitlarini to'liq hisobga olgan holda ergonomik nuqtayi nazardan qulay sport uslubidagi maxsus kiyim kompleklari ishlab chiqilgan.

ko'pkori milliy ot sporti o'yini chavandozlari uchun sport uslubidagi kiyimi to'plami ishlab chiqilgan va tikuvchilik ishlab chiqarish korxonalariga joriy etilgan, buning natijasida chavandozlar uchun qulay sharoitlar yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada shakllantirilgan ilmiy qoidalar, tamoyillar, xulosalar va tavsiyalarining ishonchliligi va izchilligi, tadqiqotning nazariy va eksperimental natijalariga muvofiqligi, approbatsiya va joriy etishning ijobiy natijalari va ushbu mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar tomonidan ijobiy baholanishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ko'pkori milliy ot sporti o'yini chavandozlari uchun maxsus kiyimning ratsional konstruksiyasi va samarali texnologiyasini ishlab chiqishning

asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ko'pkori milliy ot sporti chavandozlari maxsus kiyimini ishlab chiqish uchun mahalliy xom ashyolardan foydalangan holda material tanlashning ilmiy asoslanganligi hamda qulay kiyim konstruksiyasi va samarali texnologiyasini ishlab chiqish hisobidan chavandozlar tana harakatlari erkinligini ta'minlanganligi, chavandozlar mehnat sharoitlarining yaxshilanganligi va kiyimning ekspluatatsiya davrining oshganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: Ko'pkori milliy ot sporti o'yini chavandozlari uchun sport uslubidagi maxsus kiyimni ishlab chiqish bo'yicha olingan natijalar asosida:

o'zbekiston respublikasi Intellektual mulk agentligining sanoat namunasiga patenti olingan (№SAP 2686, 31.07.2024y. "Ko'pkori milliy ot sporti o'yini chavandozlari uchun maxsus kiyim to'plami") Natijada chavandozlarning tana harakatlari erkinligini ta'minlaydigan maxsus kiyimning gigiyenik xususiyatlari oshirilgan, ergonomik nuqtai nazaridan qulaylik yaratilgan;

taklif etilayotgan ko'pkori milliy ot sporti chavandozlari uchun sport uslubidagi maxsus kiyimni yangi komplektlari va ularning konstruktorlik-texnik hujjatlari paketi "Bukhara Cotton Textile" MCHJ, "Parvoz Xumo Ravnaq Trans" MCHJ, "Al-Hakim Plus" MCHJ tikuvchilik korxonalarida ishlab chiqarishga joriy qilingan ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2025 yil 7 apreldagi 03/25-757 sonli ma'lumotnomasi). Natijada mahalliy xom ashyolardan foydalanish, ishlov berish texnologiyasini takomillashtirish asosida ishlab chiqarilgan mahsulot birligiga nisbatan mehnat unumdorligi 11,75 % ga oshishiga erishilgan va ko'pkori milliy ot sporti o'yini chavandozlari sifatli, ergonomik jihatdan qulay hamda arzon maxsus kiyim bilan ta'minlangan;

ko'pkori milliy ot sporti o'yini chavandozlari uchun ishlab chiqilgan maxsus kiyimlar aprobatsiyasi va tadbiq etilishi "Bukhara Cotton Textile" MCHJ, "Parvoz Xumo Ravnaq Trans" MCHJ, "Al-Hakim Plus" MCHJ hamda Buxoro viloyati sport boshqarmalarida joriy qilingan ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2025 yil 7 apreldagi 03/25-757 sonli ma'lumotnomasi). Natijada ko'pkori milliy ot sporti o'yini chavandozlari maxsus kiyimi uchun material tanlashning asoslanganligi, ilk marotaba chavandozlar uchun qulay maxsus kiyim konstruksiyasi ishlab chiqilganligi, maxsus kiyimning sifati yaxshilanganligi hisobiga uning ishonchliligi va ekspluatatsiyalash davri 6 oydan 12 oyga oshishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumalarda, jumlada 4 ta xalqaro, 3 ta respublika miqyosida muhokama qilingan va ijobiy baholangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi natijalari bo'yicha 17 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan 4ta O'zR Oliy Attestatsiyasi Komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan nashrlarda, 4ta maqola xorijiy jurnallarda, 1ta sanoat namunasiga O'zR patenti va 1ta elektron dasturiy mahsulotga guvohnoma olingan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 4ta bob, umumiy xulosa, adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligini asoslash, tadqiqotning respublikaning ilm-fan va texnika taraqqiyoti yo‘nalishlari bilan bog‘liqligi, muammoning o‘rganganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya ishi bajarilayotgan universitetning ilmiy tadqiqotlari bilan bog‘liqligi, ishning maqsadi, vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ko‘pkori milliy ot sporti o‘yini uchun sport uslubidagi maxsus kiyim ishlab chiqish masalasining bugungi kundagi holati tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida Ko‘pkori milliy ot sporti o‘yini chavandozlari maxsus kiyimlarini loyihalash va ishlab chiqish bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqotlar tahlili asosida O‘zbekiston ko‘pkori milliy ot sporti o‘yini chavandozlari uchun maxsus kiyimlar ishlab chiqilmaganligi aniqlangan. O‘zbekistonda ko‘pkori o‘tkaziladigan iqlim sharoitlariga mos ravishda va otning tana haroratini hisobga olgan holda maxsus kiyimlarni ishlab chiqarishda havo harorati, issiqlikni saqlash, gidroskopiklik, qulaylik va havo o‘tkazuvchanlik xususiyatlari, chavandozlar o‘yin jarayonidagi tana harakatlari va maxsus kiyimga ta‘sir etuvchi tashqi omillar ta‘siri, ko‘pkori milliy ot sporti o‘tkaziladigan iqlim sharoitlari uchun mo‘ljallangan issiqlikni saqlovchi materiallar assortimenti tahlil etilgan.

Dissertatsiyaning **“Ko‘pkori milliy ot sporti o‘yini chavandozlari sport uslubidagi maxsus kiyimini ishlab chiqarishga qo‘yiladigan talablarni shakllantirish”** deb nomlangan ikkinchi bobida ko‘pkori milliy ot sporti chavandozlari antropometrik tahlillar natijasida eng ko‘p bajaradigan harakatlar va holatlari tahlili asosida maxsus kiyim to‘kisligi uchun qo‘shimcha haqlar va bazali konstruksiyasini ishlab chiqishda e‘tiborga olinishi kerak bo‘lgan bir qator o‘lchov belgilar tahlil etilgan.




1-rasm. O‘yin jarayonida ko‘pkori milliy ot sporti chavandozlari maxsus kiyimiga ta‘sir etuvchi zararli omillar, %

Iste'molchilar imtiyozlarini inobatga olgan holda ko'pkori milliy ot sporti chavandozlari sport uslubidagi maxsus kiyimining asosiy xossalari tahlil qilingan. Ko'pkori milliy ot sporti chavandozlari tana harakatlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish natijasida ta'sir etuvchi xavfli va zararli tashqi omillar aniqlangan va ularning maxsus kiyimga ta'sirining topografik xaritasi ishlab chiqilgan.

Gistogrammadan ko'rinib turibdiki, ko'pkori milliy ot sporti chavandozlari o'yin jarayonida mavjud kiyimga ta'sir etuvchi omillarning ta'sir darajasi bo'yicha birinchi o'rinda mexanik ta'sirlar, atmosfera ta'siri, tana harorati va ter ta'siri, keyingi o'rinda yorug'lik, oxirgi o'rinda umumiy ifloslanishdan eskirish ta'siri turadi.

Loyihalaniyotgan maxsus kiyimni asosiy tavsiflarini tanlash va asoslash maqsadida iste'molchilar o'rtasida anketa so'rovnomasi o'tkazilgan. Respondentlar sifatida ko'pkori milliy ot sporti chavandozlari tanlab olingan. Iste'molchilar ehtiyojlarini hisobga olgan holda chavandozlari maxsus kiyimining asosiy xossalari asoslangan.







2-rasm. Maxsus kiyimning muhim xossalari aniqlash bo'yicha o'tkazilgan so'rovnomada respondentlar fikrining taqsimlanishi (a)- Ko'pkori ot sporti o'yini o'tkaziladigan mavsum, (b) - maxsus kiyimning afzal to'plami turi va (c)- maxsus kiyimning noqulaylik holatlari, (d)- yeng konstruksiyasi

Gistogrammalardan ko'rinib turibdiki (2-rasm), ko'pchilik respondentlar tomonidan maxsus kiyimning eng afzal turi sifatida kurtka va shimni tanlagan (57%), ko'pkori milliy ot sporti o'tkaziladigan mavsum sifatida kuz (47%), shimning o'tirish qismida noqulaylik holatlari (47%), maxsus kiyimdagi reglan yeng konstruksiyasi (52%) ko'rsatilgan. Iqlim sharoitlarini, maxsus kiyimga ta'sir etuvchi xavfli va zararli tashqi omillar ta'siri va iste'molchilar talablarini hisobga olgan holda ko'pkori milliy ot sporti

chavandozlari maxsus kiyimiga qo‘yiladigan talablar shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning “Ko‘pkori milliy ot sporti o‘yini chavandozlari uchun sport uslubidagi maxsus kiyimini loyihalash usulini ishlab chiqish, konstruktiv parametrlarini optimallashtirish” deb nomlangan uchinchi bobida ko‘pkori milliy ot sporti chavandozlari maxsus kiyimlari uchun mo‘ljallangan materiallarning xossalari o‘rganilgan. Ko‘pkori milliy ot sporti chavandozlari maxsus kiyimlari uchun mo‘ljallangan materiallar xossalarini qiyosiy baholash Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutining “Centexuz” sertifikatсион laboratoriyasida o‘tkazilgan. Tadqiqotlar natijalari 1-4 rasmlarda keltirilgan bo‘lib, ular asosida ijobiy xossalarini inobatga olgan holda 60%-paxta, 37%-poliester, 3% spandexs tolalaridan tashkil topgan VEL-C301 artikulli matosi, astar sifatida 97% paxta tolali 3% spandex tolali 176424447-artikulli astarbop mato tanlangan.

| Havoo‘tkazuvchanlik, $\text{dm}^3/(\text{m}^2 \cdot \text{s})$ | Gigroskopiklik, % | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|--|--|---------|-------|-----------|-------|-----------|-------|-----------|-------|----------|-------|-----------|-------|----------|-------|-----------|-------|-----------|-------|---|---------|---------------------------|---------|-----|-----------|-----|-----------|-----|-----------|-----|----------|-----|-----------|------|----------|-----|-----------|-----|-----------|-----|
|  <table border="1"> <caption>Havoo‘tkazuvchanlik, $\text{dm}^3/(\text{m}^2 \cdot \text{s})$</caption> <thead> <tr> <th>Artikul</th> <th>Havoo‘tkazuvchanlik, $\text{dm}^3/(\text{m}^2 \cdot \text{s})$</th> </tr> </thead> <tbody> <tr><td>65/35-5</td><td>30</td></tr> <tr><td>163177805</td><td>35</td></tr> <tr><td>248920772</td><td>28</td></tr> <tr><td>249505425</td><td>30</td></tr> <tr><td>VEL-C301</td><td>32</td></tr> <tr><td>216774829</td><td>20</td></tr> <tr><td>89086944</td><td>15</td></tr> <tr><td>268358798</td><td>22</td></tr> <tr><td>211876415</td><td>18</td></tr> </tbody> </table> | Artikul | Havoo‘tkazuvchanlik, $\text{dm}^3/(\text{m}^2 \cdot \text{s})$ | 65/35-5 | 30 | 163177805 | 35 | 248920772 | 28 | 249505425 | 30 | VEL-C301 | 32 | 216774829 | 20 | 89086944 | 15 | 268358798 | 22 | 211876415 | 18 |  <table border="1"> <caption>Gigroskopiklik, %</caption> <thead> <tr> <th>Artikul</th> <th>Gigroskopiklik, %</th> </tr> </thead> <tbody> <tr><td>65/35-5</td><td>5</td></tr> <tr><td>163177805</td><td>8</td></tr> <tr><td>248920772</td><td>7</td></tr> <tr><td>249505425</td><td>5</td></tr> <tr><td>VEL-C301</td><td>4</td></tr> <tr><td>216774829</td><td>4</td></tr> <tr><td>89086944</td><td>4</td></tr> <tr><td>268358798</td><td>3</td></tr> <tr><td>211876415</td><td>3</td></tr> </tbody> </table> | Artikul | Gigroskopiklik, % | 65/35-5 | 5 | 163177805 | 8 | 248920772 | 7 | 249505425 | 5 | VEL-C301 | 4 | 216774829 | 4 | 89086944 | 4 | 268358798 | 3 | 211876415 | 3 |
| Artikul | Havoo‘tkazuvchanlik, $\text{dm}^3/(\text{m}^2 \cdot \text{s})$ | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 65/35-5 | 30 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 163177805 | 35 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 248920772 | 28 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 249505425 | 30 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| VEL-C301 | 32 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 216774829 | 20 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 89086944 | 15 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 268358798 | 22 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 211876415 | 18 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| Artikul | Gigroskopiklik, % | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 65/35-5 | 5 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 163177805 | 8 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 248920772 | 7 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 249505425 | 5 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| VEL-C301 | 4 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 216774829 | 4 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 89086944 | 4 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 268358798 | 3 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 211876415 | 3 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| a). Matolarning havoo‘tkazuvchanligi (GOST 12088-77) AP-360SM | b).Matolarning gigroskopikligi GOST 3816-61 MD-6P | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| Ishqalanishga chidamligi, tsikl | Elektr o‘tkazuvchanlik, V | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|  <table border="1"> <caption>Ishqalanishga chidamligi, tsikl</caption> <thead> <tr> <th>Artikul</th> <th>Ishqalanishga chidamligi, tsikl</th> </tr> </thead> <tbody> <tr><td>65/35-5</td><td>22000</td></tr> <tr><td>163177805</td><td>24000</td></tr> <tr><td>248920772</td><td>22000</td></tr> <tr><td>249505425</td><td>23000</td></tr> <tr><td>VEL-C301</td><td>24000</td></tr> <tr><td>216774829</td><td>23000</td></tr> <tr><td>89086944</td><td>20000</td></tr> <tr><td>268358798</td><td>21000</td></tr> <tr><td>211876415</td><td>21000</td></tr> </tbody> </table> | Artikul | Ishqalanishga chidamligi, tsikl | 65/35-5 | 22000 | 163177805 | 24000 | 248920772 | 22000 | 249505425 | 23000 | VEL-C301 | 24000 | 216774829 | 23000 | 89086944 | 20000 | 268358798 | 21000 | 211876415 | 21000 |  <table border="1"> <caption>Elektr o‘tkazuvchanlik, V</caption> <thead> <tr> <th>Artikul</th> <th>Elektr o‘tkazuvchanlik, V</th> </tr> </thead> <tbody> <tr><td>65/35-5</td><td>800</td></tr> <tr><td>163177805</td><td>600</td></tr> <tr><td>248920772</td><td>600</td></tr> <tr><td>249505425</td><td>650</td></tr> <tr><td>VEL-C301</td><td>500</td></tr> <tr><td>216774829</td><td>1050</td></tr> <tr><td>89086944</td><td>750</td></tr> <tr><td>268358798</td><td>600</td></tr> <tr><td>211876415</td><td>850</td></tr> </tbody> </table> | Artikul | Elektr o‘tkazuvchanlik, V | 65/35-5 | 800 | 163177805 | 600 | 248920772 | 600 | 249505425 | 650 | VEL-C301 | 500 | 216774829 | 1050 | 89086944 | 750 | 268358798 | 600 | 211876415 | 850 |
| Artikul | Ishqalanishga chidamligi, tsikl | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 65/35-5 | 22000 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 163177805 | 24000 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 248920772 | 22000 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 249505425 | 23000 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| VEL-C301 | 24000 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 216774829 | 23000 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 89086944 | 20000 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 268358798 | 21000 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 211876415 | 21000 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| Artikul | Elektr o‘tkazuvchanlik, V | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 65/35-5 | 800 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 163177805 | 600 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 248920772 | 600 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 249505425 | 650 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| VEL-C301 | 500 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 216774829 | 1050 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 89086944 | 750 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 268358798 | 600 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| 211876415 | 850 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| v) Matolarning ishqalanishga chidamligi GOST 18976-73 M235/3 | g) Elektr o‘tkazuvchanlik RS-101D asbobida GOST 32995-2014 | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |

3-rasm. Materiallarning fizik-mexanik va gigiyenik xossalarini aniqlash natijalari

Ishning keyingi bosqichida loyihalananayotgan maxsus kiyim uchun materiallar paketini shakllantirish va konstruksiyasini ishlab chiqishda aynan shu matodan foydalanilgan. Keyingi bosqichda maxsus kiyim materiallar paketinining maqbul tarkibi va qalinligini tanlash maqsadida ularning gigiyenik hamda ekspluatatsion xossalari tadqiq etilgan. Sinov uchun tayyorlangan paketlarda isituvchi qatlam materiallari sifatida sintepon, paxta, sintepux va xollofayber tanlangan, paketlar ichida isituvchi materiallar qatlamlarining joylashish ketma-ketligiga ham e‘tibor berilgan. 1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 75 % paxta 25% PE tolali materiallar paketi boshqa issiqlik izolyatsion materiallarga nisbatan yuqori termo-fizik xususiyatlarga ega.

Ko‘pkori ot sporti chavandozlari sport uslubidagi maxsus kiyimi uchun ko‘p qatlamli

materiallar paketini shakllantirish GOST P56285-2014 xalqaro standartda berilgan ma'lumotlar bilan tadqiqot natijalari taqqoslandi. Ko'p qatlamli materiallar paketini shakllantirishda yuza zichligi 700-800 g/m²dan kam bo'lmashligi kerak, biz tadqiq qilgan matolarning yuza zichligi ham shu chegarada joylashgan. Bundan tashqari, havo o'tkazuvchanlik va issiqlikni saqlash ko'rsatkichiga ham alohida ahamiyat qaratildi va ijobiy natijalar olindi. O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, qalinligi 1,9mm bo'lgan paket matosining isituvchi materiallardan foydalanish havo o'tkazuvchanlik, issiqlikni saqlash ko'rsatkichlarini kamaytirmaydi, sezilarli darajada oshadi (1-jadval).

1 – jadval

Ko'pkori milliy ot sporti chavandozlari sport uslubidagi maxsus kiyimi uchun paket matolarning fizik-mexanik xususiyatlari

| № | Ko'rsatkichlar | Paket matolarining tajriba natijalari | | |
|---|---|--|---------------|-------------------------|
| | | 37% polester, 60% paxta, 3% spandeks tolali avra va 97% paxta, 3% elastan tolali astar materiallar | | |
| 1 | Isituvchi materiallar tolaviy tarkibi | №1 100% paxta | №2 100% PE | №3 75% paxta, 25% PE |
| 2 | Paket qalinligi, mm | 1.9 | 1.9 | 1.9 |
| 3 | Havo o'tkazuvchanlik, cm ³ /cm ² ·sek | 128.9 | 110.2 | 124.1 |
| 4 | Yuza zichligi, g/m ² | 749.9 | 805.4 | 751.4 |
| 5 | Gidroskopiklik, % | 7.85 | 5.61 | 6.72 |
| 6 | Issiqlikni saqlash, % | 53 | 44 | 56 |

Shunday qilib, paket matolarning fizik–mexanik va gigiyenik xossalari qiyosiy tahlili natijalari asosida ko'pkori milliy ot sporti o'yini chavandozlari uchun eng maqbul paket matosining isituvchi materiallar uchun polester va paxta tolasidan tayyorlangan mato hisoblanadi, bu esa GOST da keltirilgan talab darajasiga javob beradi. Ishning keying bosqichida loyihalananayotgan maxsus kiyimning yangi modelini yaratish va konstruksiyasini ishlab chiqishda aynan shu matolardan foydalanilgan.




4- rasm. Ko'pkori milliy ot sporti chavandozlari uchun sport uslubidagi maxsus kiyim to'plami (kurtka va shim)

Ko'pkori milliy ot sporti o'yini chavandozlari maxsus kiyim to'plami "Corel Draw" kompyuter dasturi yordamida ishlab chiqilgan (4-rasm). Ko'pkori milliy ot sporti chavandozlari uchun ishlab chiqilgan yangi maxsus kiyim modellariga O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining sanoat namunasiga patenti olingan. (№ SAP 2686. Ko'pkori milliy ot sporti chavandozlari maxsus kiyim to'plami").

Dissertatsiyaning “Ko'pkori milliy ot sporti o'yini chavandozlari uchun sport uslubidagi maxsus kiyimining ratsional konstruksiyasi va samarali texnologiyasini ishlab chiqish, iqtisodiy samaradorligini hisoblash” deb nomlangan to'rtinchi bobida iqlim sharoitlarini, maxsus kiyimga ta'sir etadigan xavfli va zararli tashqi omillar, iste'molchilar ehtiyojlarini inobatga olgan holda chavandozlar uchun maxsus kiyim modellari ishlab chiqilgan bo'lib, maxsus kiyim konstruksiyasini qurish maqsadida o'yin jarayonida eng ko'p bajaradigan ergonomik izlanishlar amalga oshirilgan hamda real sharoitlarda sinovdan o'tkazish uning ekspuatatsion xosssalarini baholash va ishlab chiqarishga joriy etishning iqtisodiy samaradorligini hisoblashga qaratilgan.

2-jadval

Chavandozlar o'yin jarayonida eng ko'p bajaradigan ergonomik harakatlari va gavda o'lchamlarining dinamik effektlari



3-jadval

6- turdagi ergonomik holatlar bo'yicha o'lchov belgilarini dinamik effektlarning qiyosiy taxlili

| № | O'lchov belgisining nomi | Dinamik effekt, $d_j/x_i(S) * 100, \%$ | | | | | |
|---|--|--|---------|---------|---------|--------|--------|
| | | A | B | C | D | E | F |
| 1 | Orqa bel uzunligi | 10,1991 | 7,4366 | 2,9195 | 12,6053 | 7,3068 | 14,262 |
| 2 | Ko'krak kengligi | 8,7149 | 13,5321 | 15,377 | 12,7445 | 12,224 | 8,9672 |
| 3 | Bel chizig'idan dumba osti nuqtasigacha bo'lgan masofa | 18,5665 | 13,2938 | 9,9015 | 10,9191 | 9,9014 | 12,849 |
| 4 | Orqa qo'ltiq osti burchagidan bilak aylanasigacha bo'lgan masofa | 7,0284 | 7,0284 | 8,0293 | 10,5812 | 14,581 | 6,7541 |
| 5 | Old bel uzunligi | 3,6190 | 19,5604 | 11,5714 | 13,5447 | 11,883 | 6,9636 |
| 6 | Orqa yelka kenglik | 7,4545 | 6,4478 | 7,2319 | 19,1371 | 13,226 | 11,588 |

Ratsional qo‘shimcha haqlar miqdorini aniqlash maqsadida ergonomik izlanishlar o‘tkazilgan bo‘lib, buning uchun chavandozlar o‘yin jarayonida eng ko‘p bajariladigan ishchi harakatlar aniqlangan va ularni bajarish vaqtida dinamikada ishchilar gavdasini o‘lchamlarining o‘zgarishi aniqlangan (2-jadval). Tajribada yaratilgan konstruktiv yechimlarning barcha variantlarida YEMKO SEV metodikasi asosida qurilgan. Tikuvchilik sanoatida qo‘llanilayotgan usullarni tahlil qilishda YEMKO SEV, ingliz konstruksiyalash usullari ko‘rib chiqildi bu jarayon maketlar yordamida amalga oshirildi. Natijalarga ko‘ra, YEMKO SEV konstruksiyalash usuli ko‘rib chiqilgan chet el usullari kabi yaxshi statik va dinamik muvofiqlikni ta‘minlagan. Shuning uchun chavandozlari maxsus kiyimi kurtkasini konstruktiv parametrlarini takomillashtirish uchun YEMKO SEV metodikasi tanlandi. 188-108-96 o‘lcham uchun 5 dona maket namunalari tayyorlandi va konstruksiyasining dinamik muvofiqligini aniqlash uchun E.Б. Коблякова metodikasi asosida ergonomik stenddan foydalangan holda parametrlar tekshirildi.

Chavandozlar maxsus kiyimining optimal konstruktiv parametrlarni aniqlash maqsadida to‘liq faktorli tajriba o‘tkazildi. To‘liq omilli tajribalarni o‘tkazishda quyidagi kiruvchi omillarni tanlab olindi X_1 – Yelka yuqori nuqtasidan bilak aylanasi gacha bo‘lgan masofa (sm); X_2 – reglan yengning ostki choki va kiyimning yon choki o‘rtasidagi masofa (grad); X_3 – ko‘krak aylanasi gacha berilgan qo‘shimcha haq (sm).

Chiquvchi faktorlar Y_1 – maxsus kiyim (kurtka) kiygan chavandozning qo‘l harakatlarining erkinlik darajasi tanlab olingan. Tanlab olingan kiruvchi omillarning qiymatlari 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Omillarning o‘zgaruvchanlik darajasi va intervallari

| Kiruvchi omillar | Kodlash tirilgan belgisi | O‘zgaruvchan darajalardagi omillar qiymati, shartli birlik | | | O‘zgarish oralig‘i |
|---|--------------------------|--|-----|-----|--------------------|
| | | -1 | 0 | +1 | |
| Yelka yuqori nuqtasidan bilak aylanasi gacha bo‘lgan masofa (sm); | X_1 | 75 | 85 | 95 | 10 |
| Reglan yengning ostki choki va kiyimning yon choki o‘rtasidagi burchak qiymati α (grad); | X_2 | 80 | 100 | 120 | 20 |
| Ko‘krak aylanasi gacha berilgan qo‘shimcha haq (sm); | X_3 | 10 | 13 | 16 | 3 |




Kiruvchi omillarning berilgan qiymatlarida maxsus kiyimi (kurtka) kiygan chavandozning qo‘l harakatlarining erkinligi uchun keltirilgan qiymatlari: Yelka yuqori nuqtasidan bilak aylanasi gacha bo‘lgan masofa - 85(sm); Reglan yengning ostki choki va kiyimning yon choki o‘rtasidagi burchak qiymati - 100 (grad); Ko‘krak aylanasi gacha berilgan qo‘shimcha haq - 13 (sm). Omillarning berilgan qiymatlarida maxsus kiyimi (kurtka) kiygan chavandozning qo‘l harakatlari erkinligini 125,62 gradusga teng bo‘lganini ko‘rish mumkin.

Konstruktiv parametrlar bilan bir qatorda texnologik parametrlarni optimallashtirishda to‘liq omilli tajribalardan foydalanildi.




X_1 – paket qalinligi, (mm);

X_2 – issituvchi qatlamdagi polester tolasining ulushi, (%);

X_3 – 1 sm baxyalar soni, (dona).

| | | |
|---|---|---|
|  |  |  |
| $y = 125,62 + 16,875 * x_2 + 8,125 * x_3 (x_1=0)$ | $y = 125,62 + 6,875 * x_1 + 8,125 * x_3 + 1,875 * x_1 * x_3 (x_2=0)$ | $y = 125,62 + 6,875x_1 + 16,875x_2 (x_3=0)$ |
| a) Ko‘krak aylanasiqa berilgan qo‘shimcha haq hamda reglan yengning ostki choki va kiyimning yon choki o‘rtasidagi burchak qiymatining bog‘liqlik grafigi | b) Yelka yuqori nuqtasidan bilak aylanasiqacha bo‘lgan masofa hamda ko‘krak aylanasiqa berilgan qo‘shimcha haqning bog‘liqlik grafigi | c) Yelka yuqori nuqtasidan bilak aylanasiqacha bo‘lgan masofa hamda reglan yengning ostki choki va kiyimning yon choki o‘rtasidagi burchak qiymatining bog‘liqlik grafigi |
| 5- rasm. Chavandoz qo‘l harakatlari erkinligining maxsus kiyim (kurtka) konstruktiv parametrlariga bog‘liqlik grafiglari | | |


Chiquvchi omillar sifatida Y_1 – chokning mustahkamlik kuchi, (N); Y_2 – Issiqlikni saqlash, (%); Y_3 – Hidroskopiklik, (%); Y_4 – Havo o‘tkazuvchanlik, (dm^3/sm^2 sek) olingan.

| | |
|--|---|
|  |  |
| 6-rasm. Paket qalinligining issiqlikni saqlash xususiyatiga bog‘liqlik grafigi | 7-rasm. Isituvchi qatlamdagi poliyester tolasi ulushining issiqlikni saqlash xususiyatiga bog‘liqlik grafigi |
|  | |
| 8-rasm. 1 smdagi baxyalar sonining issiqlikni saqlash xususiyatiga bog‘liqlik grafigi | |

| | |
|---|--|
| Regressiya tenglamasi chokning mustahkamlik kuchi,(N); | $Y_1=499,37-21,87X_1+81,87X_3-21,87X_1X_2-44,37X_1X_3-58,12X_2X_3$ |
| Regressiya tenglamasi chokning mustahkamlik kuchi,(N); | $Y_2=55,75+2,25X_1-2,75X_2$ |
| Regressiya tenglamasi gidroskopiklik,(%); | $Y_3=4,93-0,64X_1-1,35X_2$ |
| Regressiya tenglamasi havo o'tkazuvchanlik, (dm ³ /sm ² sek); | $Y_4=121,67-14,17X_1-1,92X_2+1,52X_1X_2$ |

Chavandozlarning tipik gavda o'lchov belgilari, ergonomik izlanishlar asosida aniqlangan qo'shimcha haqlardan foydalangan holda ishlab chiqilgan konstruksiyada yuqorida qiyosiy tahlil etilgan konstruksiyalardan farqli ravishda quyidagi o'zgartirishlar kiritilgan:

- ko'krak chizig'i bo'yicha kiyim erkinligi uchun qo'shimcha haq miqdori 13 sm qabul qilingan;
- β - reglan bichimli yenglarning yelka chizig'iga nisbatan yengning hosil qilgan burchak qiymati 30° ni tashkil etgan;
- old detal va yeng o'mizi kengligi uchun qo'shimcha haq miqdori oshgani hisobidan ushbu konstruktiv hudud 3 sm ga kengaytirilgan;
- muvofiq ravishda yengning o'miz chizig'i uzunligi dastlabki uzunligiga nisbatan (a=3 sm) ga oshirilgan.



9- rasm. Ko'pkori milliy ot sporti chavandozlari uchun sport uslubidagi maxsus kiyim to'plami

Maxsus kiyim to'plami ekspluatatsiyalashda yanada qulayroq bo'lishi uchun, mavjud chavandozlar kiyimidan farqlanadigan bir qator o'zgarishlar kiritilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- ko'pkori ot sporti o'yini jarayonida tana harakatlar erkinligini va yuqori dinamik ko'rsatkichlarni ta'minlovchi reglan bichimli yenglar qo'llangan;

- maxsus kiyimning yeng uchlari va ort detalining bel qismida rezinali manjetlar qo'llandi, bu chavandozlari keskin harakati vaqtida ort detalining ko'tarilib ketishini oldi olingan;

- sovuq iqlim sharoitida harakatlanganda erkinlikni ta'minlaydigan va tashqi muhit-inson-kiyim o'rtasidagi havo almashinuvini ta'minlaydigan paket matolar ishlab chiqilgan;

- shimda 7 sml kenglikdagi belbog' tasmalar loyihalangan;

- shimning og' qismi va ichki yon choklarining so'kilishini inobatga olgan holda chavandozlari uchun shim konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

- chavandozlar shikastlanishlarini oldini olish maqsadida, himoya vositalari: boshni himoyalovchi bosh kiyim konstruksiyasi loyihalangan;

- maxsus kiyim choklarini biriktirishda va fizik mexanik xususiyatlarini oshirish maqsadida texnologik parametrlari optimallashtirilgan bo'lib, ular maxsus kiyimning ergonomik funksiyalarini yaxshilashga imkon yaratgan.

Ushbu maxsus kiyimni ishlab chiqarishga joriy etish maqsadida "Texnik shartlar" ishlab chiqilgan va ishlab chiqarishga joriy etilgan.

Shunday qilib, chavandozlarning tipik gavda o'lchov belgilari va ergonomik izlanishlar natijasida aniqlangan qo'shimcha haqlar asosida "Ko'pkori" milliy ot sporti o'yini chavandozlari uchun sport uslubidagi maxsus kiyim to'plami konstruksiyasi "Geminy Cad" dasturi yordamida qurilgan.

Olib borilgan nazariy tadqiqotlar shuni ko'rsatdi-ki, tanlab olingan uchala omil ya'ni kiruvchi omillar chokning mustahkamlik kuchiga, issiqlikni saqlashiga, gidroskopiklik va havo o'tkazuvchanlik xususiyatlariga ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

Ushbu optimal qiymatlar maxsus kiyim konstruksiyasini ishlab chiqishda qo'llangan. Maxsus kiyim konstruksiyasi va andazalar chizmalari "Geminy Cad" dasturi yordamida qurilgan.

Real sharoitlarda tajriba-sinovdan o'tkazish jarayonida ishlab chiqilgan sport uslubidagi maxsus kiyimlarning ekspluatatsion xossalari samaradorligini aniqlash maqsadida 2023 yil 30 dekabr 2024 yil 30 dekabrga qadar 12 oy davomida Buxoro viloyatining bir qator tumanlarida Ko'pkori milliy ot sporti o'yini chavandozlari o'rtasida sinovdan o'tkazilgan.

Tavsiya etilayotgan maxsus kiyim tadqiqot natijasida maxsus kiyim konstruksiyasiga erkin harakatlanish qo'shimchasi berilishi chavandozlarning ergonomik harakatlarining qulayligini ta'minlagan; tavsiya etilayotgan matoning tolaviy tarkibi maxsus kiyimning gigiyenik ko'rsatkichlarini oshishiga yordam bergan; tavsiya etilayotgan maxsus kiyimning ko'p marotaba yuvishlar soni, biriktirish usullari hamda materiallarning tolaviy tarkibi ekspluatatsion ko'rsatkichlarini oshishiga erishilgan.

Ko‘pkori milliy ot sporti o‘yinlari uchun yangi sport uslubida ishlab chiqilgan hamda mavjud maxsus kiyimlarning qiyosiy taxlili va iqtisodiy samaradorligi

| № | Boshlang‘ich ma’lumotlar | O‘lchov birligi | Mavjud maxsus kiyim | Yangi ishlab chiqilgan sport uslubidagi maxsus kiyim |
|----------|--|------------------------|----------------------------|---|
| 1 | Maxsus kiyim ishlab chiqarilishiga qilingan xarajatlar | so‘m | 100 000 000 | 88286500 |
| 2 | Maxsus kiyimni kiyib yurish muddati: normativ real | oy | 12 6 | 12 12 |
| 3 | Iqtisodiy samaradorlik | so‘m | - | 111713500 |

Tavsiya etilgan ratsional konstruksiya va samarali ishlab chiqarish texnologiyasi asosida “Bukhara Cotton Textile” MCHJ, “Parvoz Xumo Ravnaq Trans” MCHJ, “Al-HakimPlus” MCHJ tikuvchilik korxonalari sharoitida chavandozlari maxsus kiyimining sinov partiyasi ishlab chiqilgan bo‘lib, Buxoro viloyati sport boshqarmasi xodimlari, tikuvchilik korxonasi mutaxxassislari va ko‘pkori ot sporti chavandozlari tomonidan ijobiy baho berilgan.

Ko‘pkori milliy ot sporti o‘yinlari uchun sport uslubida ishlab chiqilgan maxsus kiyimni ishlab chiqarishga tadbiq etishdan umumiy iqtisodiy samara maxsulot birligiga quyidagiga teng.

$$I_s = 200\,000 \cdot 1000 - 176573 \cdot 500 = 111.713.500 \text{ so‘m}$$

Shunday qilib, yangi maxsus kiyimni ishlab chiqarishga joriy etishdan kutilayotgan yillik iqtisodiy samara 111.713.500 so‘mni tashkil etgan.

XULOSA

1. Issiqlik saqlovchi kiyimlarni loyihalash va ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar tahlili, chavandozlarning mavjud maxsus kiyimlarini eskirishi va yemirilishi topografiyasining tahlili asosida hamda iste‘molchilar ehtiyojlarini inobatga olgan holda maxsus kiyimga qo‘yiladigan talablar ishlab chiqilgan.

2. Materiallarning fizik-mexanik va gigiyenik xossalari qiyosiy tahlili natijalari asosida O‘zbekiston iqlim sharoiti va ko‘pkori milliy ot sporti o‘yini chavandozlari uchun eng maqbul ustlik matosi uchun 37% polester, 60% paxta, 3% spandeks tolasidan tayyorlangan VEL-C301 artikulli mato, astarlik matosi uchun natijalar asosida 97% paxta, 3% elastan tolasidan tayyorlangan 176424447 artikulli mato chavandozlari uchun sport uslubidagi maxsus kiyim yaratish uchun tanlangan.

3. Ko‘pkori milliy ot sporti o‘yini chavandozlari maxsus kiyimining konstruktiv parametrlarini dinamik muvofiqlik bo‘yicha optimallashtirish natijasida maxsus kiyimi (kurtka) kiygan chavandozning qo‘l harakatlari erkinligini 125,62 gradusga teng bo‘lgan.

4. Chavandozlari tana harakatlarini hamda ularga ta'sir etadigan xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarini o'rganish, shuningdek marketing tadqiqotlari asosida chavandozlar uchun yangi maxsus kiyim modeli "Corel Draw" kompyuter grafikasi yordamida ishlab chiqilgan, ularga O'zbekiston Respublikasi Intelektual mulk agentligining sanoat namunasiga patenti olingan.

5. Chavandozlarning tipik gavda o'lchov belgilari va ergonomik izlanishlar natijasida aniqlangan qo'shimcha haqlar asosida "Ko'pkori" milliy ot sporti o'yini chavandozlari uchun sport uslubidagi maxsus kiyim to'plami konstruksiyasi "Geminy Cad" dasturi yordamida qurilgan.

6. Texnologik parametrlarni optimallashtirishda olib borilgan nazariy tadqiqotlar bo'yicha tanlab olingan kiruvchi omillar, chokning mustahkamlik kuchiga, issiqlikni saqlashiga, gidroskopiklik va havo o'tkazuvchanlik xususiyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan natijalar asosida samarali texnologiyasi takomillashtirilgan.

